MANTIQIY IZCHIL IXCHAM, QIZIQARLI TA'SIRCHAN (YANGI FANLARNING YANGI TUTUM VA USULLARI HAQIDA)

B.X. Daniyarov
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti professori, filologiya fanlari doktori

https://doi.org/10.5281/zenodo.15287512

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar davrida yangi fanlarni o'qitishning yangi prinsip va usullari haqida so'z yuritiladi. Jumladan, akademik yozuv fanini sifatli va samarali o'qitish, ilmiy va ilmiy-publitsistik matnlarni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri bayon qilish masalalari zamonaviy kompleks metodika asosida tahlil qilinib, yechimi bo'yicha aniq tavsiyalar berilgan.

KALIT SO'ZLAR

mantiqiy izchil, ixcham, qiziqarli ta'sirchan; aniq, sodda va ravon, tushunarli va oson; ilmiy uslub - bor asos, dalil isbot – bari rost; angla, anglat – aniq maqsad. yangi fanlarni o'qitishning yangi prinsip va usullari, tutum – sof o'zbekcha so'z, prinsip atamasining o'zbekchasi - tutum, tamoyil – tendensiya so'zining o'zbekchasi, qofiyali qoidalar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются новые принципы и методы преподавания новых дисциплин в эпоху цифровых технологий. В частности, анализируется вопрос качественного и эффективного преподавания академического письма, правильного изложения научных и научно-публицистических текстов в устной и письменной речи на основе современной комплексной методики, а также предлагаются конкретные рекомендации по его решению.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Логически последовательный, лаконичный, интересный, выразительный; интересно, впечатлило, все понятно, очень мило; научный стиль — обоснование, доказательство и факты - всё верно; осмысли и мотивируй — чёткая

цель. новые принципы и методы преподавания новых дисциплин, «тутум» — чисто узбекское слово, узбекский аналог термина «принцип» — «тутум», «тамойил» — узбекский аналог слова «тенденция». Рифмованные правила.

ABSTRACT

This article discusses new principles and methods of teaching new disciplines in the digital technology era. In particular, it analyzes the issues of high-quality and effective teaching of academic writing, the correct presentation of scientific and popular scientific texts in oral and written speech based on a modern comprehensive methodology, and provides specific recommendations for their solution.

KEY WORDS

Logically consistent, concise, interesting, impactful; precise, simple and fluent, understandable and easy; scientific style — justification, evidence — all true; understand, explain — clear goal. new principles and methods of teaching new disciplines, “tutum” — a purely Uzbek word, the Uzbek equivalent of the term “principle” is “tutum,” “tamoyil” — the Uzbek equivalent of the word “tendency.” Rhymed rules.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarining mislsiz darajada shiddat bilan rivojlanishi zamonaviy dars o‘tishning innovatsion tutum va usullarini taqozo etmoqda. Xususan, “Akademik yozuv”, “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati”, “O‘zbek tilini sohada qo‘llash” kabi yangi fanlar axborot texnologiyalari

taraqqiyoti davrida o‘qitishning yangi, zamonaviy darslik, o‘quv qo‘llanmalarini, metod va metodikalarini talab qiladi. O‘quv adabiyotlarining zamonaviy ta’limga hamnafas bo‘lishini, talaba-yoshlar uchun jozibadorligini ta’minlash juda muhim.

Yana bir muhim tomoni, o‘qituvchi auditoriya, darsxonada qaysi soha vakillari, kimlar o‘tirganligini, bu ilmi toliblar ta’limning qaysi shakllini (kunduzgi, sirtqi, kechki va h.) tanlaganliklarini bir daqiqa ham unutmay, shundan kelib chiqqan holda o‘z nutqini ularga tushunarli va maroqli tarzda tashkil qilishi kerak [6: 1O]. Bu muhim xususiyatlarni bilmagan domla talabalarining o‘tilayotgan fanlarga bo‘lgan qiziqishi, ishtiyoqini so‘ndirib qo‘yishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI.

Yangi joriy etilgan “Akademik yozuv” faniga oid alohida kitob ko‘rinishiga ega ilmiy yoki o‘quv-metodik adabiyotlar, jumladan, monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanmalar juda kam. Borlari ham turli soha yo‘nalishlarda ta’lim olayotgangan talabalar uchun, shu jumladan, nofilologik va nogumanitar sohalarni tanlagan talabalar uchun tilshunos olimlar tomonidangina umumiy tarzda yozilgan adabiyotlardir (chunki ushbu fanni oliy ma’lumotli filologiya sohasida kamida magistr darajasidagi zarur bilim, ko‘nikma va malakalarga ega mutaxassislar o‘qitishi kerakli tegishli hujjatlar bilan belgilab qo‘yilgan) [1: 175].

Bu holat esa texnika yo‘nalishidagi soha va mutaxassisliklarni egallashni azm qilgan talabalar, jumladan, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika institutining kompyuter injiniring va axborot texnologiyalari yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalari uchun ushbu fanni o‘rganish jarayonida muayyan muammo va qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

Masalan, ba’zi bir tilshunoslikka oid o‘quv adabiyotlar, ilmiy ishlarda termin (atama) so‘zi quyidagicha ta’riflangan:

“Terminologiyaga bag‘ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi. Hozirgi vaqtda terminologiya masalasining o‘sib borishi, bir tomondan ilm-fan, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiyotning dinamik rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning ko‘payib borishi deb qaralsa, ikkinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni rivojlanishi va funksiyasi kabi masalalarni chuqurroq o‘rganilishi zarurligi bilan izohlanadi”.

Ushbu ta’rif nofilologik yo‘nalishda, masalan, texnika sohasi yo‘nalishida, jumladan, kompyuter muhandisligi va axborot texnologiyalari

yo‘nalishini tanlagan talabalarning tushunishi uchun juda murakkab bo‘lib, ularning akademik yozuv faniga bo‘lgan qiziqishlarini so‘ndirib qo‘yishi mumkin.

Bo‘lg‘usi “aytichi”larga termin tushunchasini oddiy va lo‘nda qilib, quyidagicha tushuntirish ma’qul:

“*Terminlar biror bir sohaga oid maxsus so‘zlar, tushunchalar. Masalan, bayt, kilobayt, megabayt, terabayt va h.*” [5: 111].

Matn, *nutq* va ularning turlari kabi tushunchalar esa mavjud adabiyotlar va o‘quv-metodik majmualarda quyidagicha yoritilgan:

“Matnlar tarixan shakllangan adabiy tilning turli ko‘rinishlari bo‘lib, ular fikrni ifoda etish jarayonida nutq tuzilishining o‘ziga xosligi bilan farqlanadi. Matnlar taraqqiyotini adabiy janrlar taraqqiyotidan ajratgan holda qaramaslik kerak. Chunki nutqiy vositalar tarkibi va ularni qo‘llash me’yorlari asar janri bilan aloqadordir. Badiiy matn janrlar prinsipi asosida tavsif qilinadi va ular asarning janr xususiyatiga ko‘ra farqlanadi” [10: 6].

Tasavvur qiling-a, ushbu institutning, masalan, axborot texnologiyalari sohasini egallamoqchi bo‘lgan talaba *atama*, *matn* haqidagi bu bilimlarni eshitib, yoki o‘qib qay ahvolga tushishi mumkin. Bu sohani tanlagan talabalarga *atama* (termin), *matn* tushunchalarini oddiy va sodda qilib tushuntirish kerak, masalan, quyidagi tarzda:

“*Matn bu – so‘zlar vositasida anglatilgan va qog‘ozga tushirilgan, bir yoki undan ortiq gaplardan tashkil topgan fikr (fikrlar)*.”

Akademik yozuv, o‘zbek tili (nofilologik guruhlar uchun) fanlarining asosiy *maqsadi va vazifasi* talabalarning nafaqat o‘zbek tili haqidagi bilimlarini oshirishga, xususan, ilmiy va ilmiy-ommabop matnlarni o‘zbek tilida to‘g‘ri, aniq va ravon bayon etishga o‘rgatish, balkim, birinchi navbatda, ularda o‘zbek tilining keng imkoniyatlarini sohada qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirgan holda o‘zlari tanlagan soha yo‘nalishlarini chuqur o‘rganishga ishtiyoq va rag‘bat o‘yg‘otish hamdir[1: 121].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Shu maqsadda ushbu maqola muallifi – kamina tomonidan quyidagi “Qofiyali qoidalar” - dars o‘tishning innovatsion tutum va usullari ishlab chiqildi, masalan :

Oddiy sodda va ravon/ Tushunarli va oson.

Mantiqiy izchil ixcham/ Qiziqarli ta’sirchan.

O‘zbek adabiy tilini dunyoning eng go‘zal va boy tillariri darajasiga olib chiqishda buyuk Navoiyning xizmatlari beqiyos ekanligini “go‘zal va sodda, qolgusi yodda” uslubida tushuntirib, allomaning mangu munavvar va nafis

g‘azallarini yoddan o‘qiy boshlaydi, talabalar beixtiyor zavq ila unga jo‘r bo‘lishadi:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi.
Lahza-lahza chiqdimu, chekdim yo‘lida intizor,
Keldi jon og‘zimg‘ayu, ul sho‘xi badxo‘ kelmadi...
Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot
Ro‘zg‘orimdek ham o‘lg‘onda qorong‘u kelmadi.
Ul parivash hajridinkim, yig‘ladim devonavor,
Kimsa bormukim, anga ko‘rganda kulgu kelmadi...

TAHLIL VA NATIJALAR

Akademik yozuv fani domlasi ushbu umrboqiy go‘zal g‘azalni qiyomiga etkazib, ijro qilib bo‘lgach. Shogirdlariga murojaat qiladi. – Qani aytting-chi, O‘zbekistondan boshqa Markaziy Osiyodagi, qo‘ying-chi, jahondagi yana qaysi davlatlarning ta’lim muassalari (bog‘cha, maktab, oliygohlar kabilar)da Navoiyning g‘azallari ommaviy o‘qiladi? O‘qituvchisi, domlasi boshlab bersa, shogirdlari unga jo‘r bo‘lishadi? Javob: Tanho O‘zbekistonda. Quyidagi ushbu quyma ravon misralar xat-savodi bor qaysi o‘zbek uchun tushunarsiz:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi.
Lahza-lahza chiqdimu, chekdim yo‘lida intizor,
Keldi jon og‘zimg‘ayu, ul sho‘xi badxo‘ kelmadi...

Javob: ona tilisi o‘zbek bo‘lgan, ziyoli va madaniyatli hamma millatdoshlarimiz uchun tushunarli. Savol: Nima uchun shunday? Javob: Chunki Buyuk Navoiy bobomiz o‘zbek millatiga mansub bo‘lib, o‘zbek adabiy tilida mukammal asarlar bitganlar va millatimizni qaynoq mehr hamda chuqur ehtirom ila tilga olganlar:

Shohu toji xil’atikim, men tomosho qilg‘ali,
O‘zbegim boshida qalpoq, egnida shirdog‘i, bas!

Bu misralarda bobokalonimiz aytayaptilarki: Shohning qimmatbaho tojiyu, serhasham libosi (xil’ati)ni tomosha qilib men zavq olaman, lekin men uchun o‘zbegimning oddiy do‘ppisi va oq chakmoni bo‘lsa, bas! (shohning hashamatli kiyimi va tojidan afzal).

Xalqimiz ham o‘z tili – o‘zbek adabiy tilining shakllanib yuksak cho‘qqilarga ko‘tarilishiga beqiyos ulkan ulush qo‘shgan millatdoshinini e’zozlaydi, ardoqlaydi, ko‘klarga ko‘taradi. Dars xonadagi ekranda ushbu g‘azalning 1-,2-,3- baytlari gavdalanadi. Domla *Oddiy sodda va ravon/ Tushunarli va oson* usulini qo‘llab g‘azalni maromiga keltirib, ifodali o‘qiydi

va talabalarning faollashgan e‘tiborini *Mantiqiy izchil ixcham/ Qiziqarli ta’sirchan* tarzda asarning mazmun-mohiyatiga qaratadi:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi.
Lahza-lahza chiqdimu, chekdim yo‘lida intizor,
Keldi jon og‘zimg‘ayu, ul sho‘xi badxo‘ kelmadi...
Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot
Ro‘zg‘orimdek ham o‘lg‘onda qorong‘u kelmadi.

Birinchi va ikkinchi baytlarning ma’nosi talabalar uchun to‘liq tushunarli. Uchinchi baytdagi so‘zlarning aksariyati, har bir so‘zni alohida olib qarasak, talabalar uchun butunlay notanish emas, lekin ushbu ushbu nazmiy matnning umumiy yaxlit ma’nosi talabalar uchun jumboq. Chunki Navoiy ushbu asar qahramonining hissiyotlarini va holatini o‘ta noziklik bilan haqqoniy ifodalashda lisoniy tejamlilik tutumini mantiqiy izchil va ixcham tarzda yuksak mahorat bilan qo‘llagan.

Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot
Ro‘zg‘orimdek ham o‘lg‘onda qorong‘u kelmadi.

Ushbu baytdagi so‘zlar talabalarga u qadar “begona” emas. *Oraz* – yuz, chehra so‘zlarining ma’nodoshi ekanligini, Navoiy davri o‘zbek adabiy tilida *bo‘l* so‘zi ma’nosi *o‘l* [o‘l] shaklida ham anglatilganligini, ushbu so‘zdan hosil bo‘lgan *o‘lg‘onda* so‘zi hozirgi *bo‘lganda* so‘zining ma’nosini bildirishi talabalar uchun maktab davridan ma’lum. Jumladan, Hazrat Navoiyning ushbu purma’no va umr boqiy misrasi “*Har tuning qadr o‘lubon, har kuning o‘lsun Navro‘z*” misrasi har yili yurtimizga bahor va yangilanish fasli kirib kelishi bilanoq Navro‘z bayram tadbirlarining bosh g‘oyasi sifatida barcha tashkilotlar va ta’lim musassalarining peshyozuvlarini bezab, go‘zal o‘zbek tilimizda jonlanadi.

Demak, ushbu baytni “aytichi” talabalarga oddiy, sodda, chiroyli qilib tushuntirib berish mumkin:

“*Orazidek oydin erkonda*” – degani “(yorning) yuzidek oydin, yorug‘ kunda” ma’nosini, “gar etti ehtiyot” – “o‘zini ehtiyot qilgan bo‘lsa” ma’nosini bildirib, ushbu jumlalar birgalikda (*Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot*): “agar (yor) go‘zal yuzidek oydin, yorug‘ kunda o‘zini (boshqalarning ko‘ziga tashlanishidan uyalib) ehtiyot qilib kelmagan bo‘lsa,” ma’nosini anglatadi.

Endi keyingi misraga e’tiborimizni qaratamiz: *Ro‘zg‘orimdek ham o‘lg‘onda qorong‘u kelmadi.* Ma’nosi: “Tun ro‘zg‘orimdek (turmushimdek) qorong‘i bo‘lganida ham kelmadi”.

Demak, ushbu *Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot/ Ro‘zg‘orimdek ham o‘lg‘onda qorong‘u kelmadi* baaytning umumiy ma’nosi:

“Agar (sevgilim) go‘zal yuzidek oydin, yorug‘ kunda o‘zini (boshqalarning ko‘ziga tashlanishidan uyalib) ehtiyot qilib kelmagan bo‘lsa, (unda nega) Tun (kecha) ro‘zg‘orimdek (turmushimdek) qorong‘i bo‘lganida ham kelmadi”. Ushbu qariyb yarim abzasdan iborat qo‘shma gapni Shoirlar sultonoi Hazrat Navoiy yuksak mahorat bilan go‘zal lisoniy tutum va badiiy uslubda ham mazmunan, ham shaklan benazir nafis va quyma ixcham ifodalagan:

“Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot/Ro‘zg‘orimdek ham o‘lg‘onda qorong‘u kelmadi.”

Zamonaviy dars o‘tishning tutum (prinsip) va usullarini oddiy, sodda, aniq, lo‘nda usulda bayon etish maqsadga muvofiq. Bayon etilgan fikr-mulohazalarni isbotlovchi faktlar, dalillar misollar yetarli va shubhaga o‘rin qoldirmaydigan darajada shaffof bo‘lmog‘i lozim. Tegishli mavzular talabalarga yaxshi tanish va manzur bo‘lgan hayotiy nutqiy vaziyatlar orqali tushuntirilsa, tinglovchilarning qiziqishi yanada ortadi [5: 15].

Masalan, “Akademik yozuv” darslarida “Matn hosil qiluvi vositalar”, “Nutq uslublarining leksik-grammatik xususiyatlari” kabi mavzularni o‘rganishda o‘zbek tili so‘z boyligi ulkan bo‘lib, har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llash muhimligini talabalar orasida mashhur bo‘lgan qo‘shiqlardan misollar keltirish orqali, talabalarga tushuntirilsa, o‘zgacha samarali ijobiy natijaga erishiladi, masalan, yoshlar orasida mashhur bo‘lgan “Baxtingni top” qo‘shig‘i misolida:

Oshiq yigit sevgan yorining qo‘lida uning boshqa yigitga turmushga chiqayotganligi bo‘yicha to‘yga taklifnomani ko‘rib qoladi va qattiq iztirobga tushib qoladi, lekin qizga “ket” deya olmay, “bor, bor” deb nido qiladi: talabalarga qo‘shiqchi Sardor Toirov ijrosida ushbu kuy (“Baxtingni top”) internetga ulangan kompyuter (smartfon) qurilmalari orqali oflayn taqdim etiladi:

Yashirasan nigohlaring, /Go‘zal ko‘zi qaroqlaring,/
Menga so‘nggi so‘z aytolmay/ Qaltiraydi dudoqlaring...
....O‘zi sezib turibman,/Arang kulib turibman/
Qo‘linigdagi qog‘ozni/Netay ko‘rib turibman....
....Axir bu taklifnoma/ Baxtimdan qayirmoqda./
Shu bir parchagina qog‘oz/ Sevgimdan ayirmoqda –a –a-a-a!
Bor, bor, bo-o-o-r, baxtingni top/ Qaramagin ortinga/
Bor, bor, bo-o-o-r, baxtingni top/ Quloq solma qalbingga-a-a-a!

Kuy tugagach, qo‘shiq matni qiziqarli tarzda tahlil qilinadi. Bu nutqiy vaziyatda bor so‘zini “ket”, “jo‘na”, “yo‘qol”, “daf bo‘l” kabi so‘zlar bilan almashtirib bo‘lmasligi talabalarga o‘qitishning yangi jamlanma (kompleks) usullari bilan yaqqol jozibali anglatiladi, jumladan, qiziqarli, suhbat, bahs-munozaraga chorlovchi, faollikka undovchi savollar beriladi: qo‘shiq qahramoni oshiq yigit nima uchun sevgilisiga “ket”, “jo‘na” yoki “yo‘qol” deb aytolmaydi? Hayotda shunday ruhiy holatda ushbu qo‘pol so‘zlarga bundan-da qo‘polroq so‘zlarni qo‘shib, yaxshi ko‘rgan qizini haqorat qilib, shovqin solib, kamiga do‘pposlab quvib yuborgan kimsalar yo‘qmi?

Nutqiy vaziyatni haqqoniy aks etishda, matn tuzishda, inson ruhiy kechinmalarini, uning ichki hissiyotlari, kechirgan tajribalari va emotsional holatlarini so‘zlar vositasida jonli aniq va ta’sirli tasvirlashda so‘zlarni, xususan, ma’nodosh so‘zlarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmi toliblarga chiroyli va maroqli tarzda tushuntiriladi.

Xuddi shunday: *jozibali go‘zal sodda, bir umrga qolar yodda* – usulida o‘zbek adabiy tilimiz haqida ma’lumot berish, jumladan, hassos o‘zbek shoiri Lutfiyning mashhur “Xoh inon, xoh inonma radifli” g‘azaliga zamonaviy kuy bastalab, el olqishiga sazovor bo‘lgan “Nola” estrada guruhi ijrosida tinglab tahlil qilish maqsadga muvofiq:

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondir jigarim, xoh inon, xoh inonma.
Hijron kechasi charxi falakka etar, ey, moh,
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.
Haqqoki qilich kelsa boshimga eshikingdan,
Yo‘qtir guzarim xoh inon, xoh inonma...

Kuy tugagach, jumladan, ushbu g‘azal, va umuman, o‘zbek adabiy tilida bitilgan mumtoz asarlar misolida o‘zbek tili dunyodagi taraqqiy etgan adabiy tillar kabi eng qadimiy va eng boy turkiy adabiy til ekanligi, o‘zbeklar ushbu qadimiy go‘zal tilning bevosita vorislari bo‘lganliklari bois XIV-XV (va undan keyingi) asrlarda o‘zbek tilida zarhal harflar bilan adabiy tarix zarvaraqlariga muhrlangan benazir asarlarni bugun XXI asrda ham har bir savodli va ziyoli o‘zbek o‘qib tushunishi va undan unutilmas zavq olishi shubhaga o‘rin qoldirmaydigan dalil va isbotlar bilan talabalarga jozibali isbotlanadi.

“Qofiyali qoidalar” ga yana misollar:

Angla–anglat, aniq maqsad. Bu qoida talabalarga hayotda aniq maqsadga erishishni o‘rgatadi. Jumladan, akademik yozuv fani domlasi talabalarga ushbu fan nima uchun o‘qitilayotganligini *aniq, sodda va ravon, anglab olishga oson* usulda tushuntiradi. Raqamli texnologiyalar davrida hayot

sur’atlari nihoyatda tezlashib ketishi natijasida inson o‘zini hech narsaga ulgurmayotganday, “vaqtning barakasi qolmayotganday” his qilmasligi uchun ushbu muhim qoida va tutumlar talabalarga hayotda o‘zlarining oldilariga aniq maqsadni qo‘yishni, unga muvaffaqiyatli erishish uchun muayyan reja tuzib, dadil harakat harakat qilishni, vaqt insonga berilgan ne’mat – uning kelajagi uchun xizmat qilishi lozim bo‘lgan eng muhim sarmoya ekanligini anglab his qilishni, undan barakali foydalanishni o‘rgatadi:

Xayol surma, reja qur/ Maqsad sari dadil yur.
Xayol surma, otni sur/ Kelajaging bugun qur.

Yana:

Har lahzani imkon bil/ Hozir, hozir, hozir qil!
Hozi-i-ir demay, hozir qil/Nozir qil va hozir qil.

Yana:

Ezgu ishga bel bog‘lading mudom/
Ko‘nglingga kirmasin shubha hech qachon/
Har qanday holatda o‘zingga ishon/
Ishonib intilgin maqsading tomon!

Ilmiy uslub: bor asos/ Dalil, isbot. Bari rost. Ilmiy uslubga xos, akademik yozuvning eng muhim jihatlarini oddiy, sodda va ravon/anglab olishga oson usulda bayon qiluvchi mazkur qofiyali qoidalar, ushbu tutumlarga qat’iy rioya etish kerakligini o‘rgatuvchi quyidagi qofiyali qoidalarga ham e’tiborimizni qaratamiz:

Ilmiy uslub: bor asos/ Dalil, isbot. Bari rost.
Aniq, lo‘nda faktlar jam/ Mantiqiy izchil, ixcham
Nutq ishonchli xotirjam/ Qiziqarli ta’sirchan.

Akademik yozuv fani talabalarga nafaqat ilmiy matnlarni, shuningdek ilmiy-publisistik matnlarni ham og‘zaki va yozma nutqda “Ham ilmiy, ham ommabop/Qiziqarli hammabop” uslubda bayon etishni o‘rgatadi”:

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko‘rinadiki, *Mantiqiy izchil, ixcham/ Qiziqarli ta’sirchan usuli* mantiqiy, ma’nili, tartib-intizom bilan ketma-ketlikda fikrlash va fikrlarni bayon etish ko‘nikmalarini ham, muayyan konmatn (kontekst)ning bir qarashda jumboqday bo‘lib turgan ma’nolarini anglashni ham qiziqarli va ta’sirchan tarzda o‘rgatadi.

Yangi jamlanma (kompleks) metodikaning original tutum va usullaridan biri kaminaning qalamiga mansub “*Qofiyali qoidalardir*”. Qofiyali qoidalar oddiyligi, sodda va ravonligi bilan ajralib turganligi bois, talabalar bu qoidalar mazmun mohiyatini engil, oson anglab maroq bilan eslab qolishadi.

Akademik yozuv fanining jozibadorligini ta’minlash, mashg‘ulotlarni talabalar tanlagan sohalarga yo‘naltirgan holda original va, albatta, qiziqarli metodika asosida olib borish maqsadga muvofiqdir, jumladan, o‘qitishning shunday zamonaviy kompleks metodikasini, tutum va uslublarini biz baholi qudrat ishlab chiqib, amaliyotga joriy etganmiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Данияров Б. Х. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нутқий муносабати, лексикографик тадқиқи. Монография.- Тошкент: “Сано стандарт”, 2019.- 200 б.
2. Данияров Б.Х. Комплексный анализ семантической структуры и функционирования лексических синонимов. Монография / Б. Х. Данияров. – Ташкент: Издательство Bookmany print, 2022. – 156 с. – С. 120-121.
3. Данияров Б.Х. Академик ёзув дарсларида замонавий смартфонлардан самарали фойдаланиш.- Компьютер лингвистикасининг замоновий технологиялари. Вазирлик миқёсидаги илмий-назарий анжумани илмий мақолалари ва тезислари тўплами (2023-yil 14 апрель). –Т.: ЎзМУ, 2023. – 135-бет.
4. Данияров Б.Х. Методика инновационного обучения говорению на русском языке узбекоязычных студентов технических вузов/ Традиции и новации в профессиональной подготовке и деятельности педагога: сб.науч.тр. IV Междунар. Науч. – практ.конф. / под редакцией И.Д. Лельчицкого. – Тверь: Твер. гос. ун-т, 2022. – Вып. 20. С. 15.
5. Данияров Б.Х. Dars sifati va jozibadorligini oshirishga zamonaviy yondashuvlar UDK 37.02Ilm-fan, ta‘‘lim-tarbiya, innovatsiya: zamonaviy vazifalari va istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (2024-yil 3-may)/ O‘zR OTFIV,Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, O‘zR FA Yosh olimlar kengashi. –Toshkent: TIPI, 2024. -301 b. Б. 111.
6. Данияров Б.Х. Жозибали дарс – ҳам қарз, ҳам фарз. // Тошкент иқтисодиёт ва педагогика институти илмий-методик журнали, №1 (2024 йил, сентябрь): – Т.: ТИПИ,2024, Б. 10.
7. Данияров Б.Х. Иследование лексической синонимии, возникшей на базе заимствований в современном узбекском языке.

Автореферат диссертации... канд. филол. н. - Москва: Институт языкознания РАН, 1993.

8. Данияров Б.Х. Ўзбек адабий тили орфоэпияси ва орфографиясининг айрим долзарб муаммолари. Тил ва адабиёт таълими» ж., -Т.: 2014. 11-сон. 9-11 б.
9. Данияров Бахтиёр. Принцип атамаси ва унинг ўзбекча муқобиллари хусусида/ “Оммавий ахборот воситаларида тил ва услуб масаласи: Таҳлил, тасниф, қиёс” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари.2023 йил 22 ноябрь. – Тошкент: Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети, 2023, Б. 15-21.
10. Ж.Лапасов. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1995. - Б. 6.